



“YAGONA REYESTR” TIZIMINING IJTIMOIIY SOHALARDAGI SAMARADORLIGI

Yuldasheva Gulbahor Ibragimovna

FarDU, Axborot texnologiyalari kafedrası dotsenti

Sobirova Xamroxon Yodgorjon qizi

FarDU, Ijtimoiy ish yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada raqamli jamiyat sharoitida ma‘lumotlarni markazlashgan holda yig‘ish, saqlash va tahlil qilish davlat boshqaruvi hamda ijtimoiy sohalarda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun aholi, ijtimoiy xizmatlar, iqtisodiy jarayonlar va davlat boshqaruvi bilan bog‘liq ma‘lumotlarning yagona axborot makonida jamlanishi Yagona reyestr kabi zamonaviy axborot tizimlarining paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Shu nuqtayi nazardan, Yagona reyestr va ijtimoiy ta‘minot kabi axborot tizimlari samarali boshqaruv, shaffoflik va tezkor qarorlar qabul qilishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Raqamli axborotlarning ma‘lumotlar bazasi, axborot xavfsizligi, algoritmlar va tarmoqlar kabi yo‘nalishlari ushbu tizimlarning ilmiy-texnik poydevorini tashkil etadi.*

Kalit so‘zlar: *Yagona reyestr tizimi, ijtimoiy ta‘minot tizimi, elektron boshqaruv, axborot tizimi, shaffoflik, monitoring va audit, axborot xavfsizligi, avtomatlashtirilgan axborot, ma‘lumotlar bazasi.*

Abstract: *In this article, centralized data collection, storage and analysis in the conditions of a digital society is gaining importance in public administration and social spheres. Therefore, the concentration of information related to the population, social services, economic processes and public administration in a single information space has led to the emergence of modern information systems such as the Unified Register. From this point of view, information systems such as the Unified Register and social security serve as the main tools for effective management, transparency and rapid decision-making. Areas such as digital information databases, information security, algorithms and networks form the scientific and technical foundation of these systems.*

Keywords: *Unified Register System, Social Security System, Electronic Governance, Information System, Transparency, Monitoring and Audit, Information Security, Automated Information, Database.*

KIRISH

Hozirgi raqamli jamiyat sharoitida axborotlarni markazlashgan holda yig‘ish va boshqarish dolzarb masalaga aylangan. Yagona reyestr kabi axborot tizimlari katta hajmdagi ma‘lumotlarni tezkor va ishonchli qayta ishlash imkonini beradi. Ushbu tizimlar raqamli axborotlarda ma‘lumotlar bazasi, algoritmlar va kompyuter



tarmoqlari kabi yo‘nalishlariga asoslanadi. Yagona reyestr ma’lumotlar takrorlanishini kamaytirib, axborot aniqligi va yaxlitligini ta’minlaydi. Avtomatlashtirilgan boshqaruv orqali inson omiliga bog‘liq xatolar sezilarli darajada kamayadi. Natijada davlat va ijtimoiy sohalarida samarali, shaffof va tezkor xizmat ko‘rsatish imkoniyati yaratiladi.

ASOSIY QISM

Ijtimoiy reyestr — bu O‘zbekiston Respublikasida aholining ijtimoiy ahvolini aniqlash, ijtimoiy yordam va xizmatlarni adolatli taqsimlash uchun yaratilgan yagona elektron tizimdir. Unda kam ta’minlangan, ko‘p bolali oilalar va yordamga muhtoj shaxslar haqidagi ma’lumotlar jamlanadi. Yagona reyestr asosiy maqsadi — bu O‘zbekiston Respublikasida ehtiyojmand oilalar, kam ta’minlangan shaxslar va boshqa ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar uchun birlashtirilgan ma’lumotlar bazasi bo‘lib, ular uchun davlat yordamlarini aniqlash, tayinlash va nazorat qilishga xizmat qiladi. Masalan, 2020-yilda e‘lon qilingan maqolaga ko‘ra, “hech qanday inson omilidan qat’i nazar”, ya’ni avtomatlashtirilgan axborot tizimi yordamida oilaning ehtiyojmandligi baholanadi. Bu tizim orqali idoralararo ma’lumot almashinuvi, ariza qabul qilish jarayonining soddalashtirilishi va shaffoflikning oshirilishi ko‘zlangan. “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” AT joriy etilishi 2019-yil 13-aprel kuni qaror bilan boshlangan. 2020-yil 5-may kuni yangilangan tartib bilan xalqaro tajriba va shaffoflikni oshirishga qaratilgan. 2023-yil 28-iyuldagi qaror bilan ijtimoiy yordamning yagona ro‘yxati tasdiqlanib, yordam turlari kengaytirilgan.

Ijtimoiy reyestrda qilargalarga ko‘rsatiladigan asosiy ijtimoiy xizmatlar. Moliyaviy yordam turlari: Naqd pul ko‘magi — ehtiyojmand oilalarga har oy yoki bir martalik moddiy yordam. Bolali oilalarga nafaqa — o‘n to‘rt yoshgacha bo‘lgan bolalari bor kam ta’minlangan oilalarga beriladi. Yosh bolasi bo‘lgan onalarga nafaqa — farzandi ikki yoshgacha bo‘lgan va mehnat faoliyati yo‘q onalarga. Yordam puli (manzilli ijtimoiy yordam) — daromad darajasi yashash minimumidan past bo‘lgan oilalarga beriladigan yordam.

Mahalla roli va vazifasi ijtimoiy reyestrda, asosiy maqsad: fuqarolarga yordamni joyida, tez va adolatli tarzda yetkazish. Shuning uchun mahallalar ijtimoiy reyestrning birinchi bo‘g‘ini hisoblanadi. Mahalla mas’ullarining vazifalari: Aholining ijtimoiy holatini o‘rganish (daromad, ish, uy-joy, salomatlik); Ehtiyojmand oilalarni aniqlab, ijtimoiy reyestrda kiritish uchun tavsiya berish; “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”, “Temir daftar” bilan ma’lumot almashish; Mahalla orqali tayinlangan yordamlarning to‘g‘ri sarflanishini nazorat qilish; Fuqarolarga ariza topshirish, hujjat to‘ldirish va masalalarga yordam berish. Har bir mahallada kamida 1 nafar ijtimoiy xodim faoliyat yuritadi. Ular tuman (shahar) ijtimoiy himoya bo‘limi bilan bevosita bog‘langan.

Ijtimoiy ta’minot tizimi. Ijtimoiy ta’minot to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat byudjetidan ajratiladigan mablag‘lar, shuningdek homiyar (turli jamg‘armalar va tashkilotlar, yuridik va jismoniy shaxslar) mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi. Ijtimoiy



ta'minot miqdori va uni taqdim etish tartibi milliy urf-odatlar hamda xalqaro me'yorlarga asoslanib ishlab chiqilgan qonunchilik va davlatning iqtisodiy imkoniyatlari doirasida belgilanadi. Pensiyalar — keksalik bo'yicha, nogironlik bo'yicha, boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha pensiyalar hamda ijtimoiy nafaqalar (nogiron bolalarga, boquvchisini yo'qotgan oilalarga, ishlamagan yolg'iz nogironlar va keksalarga beriladigan to'lovlar) ijtimoiy ta'minotning eng muhim turlari hisoblanadi. Qariyalar va nogironlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish quyidagilarni o'z ichiga oladi: nogironlarni "Muruvvat" uylariga, yolg'iz qariyalarni "Sahovat" uylariga joylashtirish; muhtojlarni protez-ortopediya va harakatlanish vositalari bilan ta'minlash; nogiron bolalarni kasbga o'qitish va ishga joylashtirishda yordam ko'rsatish; pensionerlarni sanatoriyalarda va dam olish uylarida sog'lomlashtirish; shuningdek ularga shahar jamoat transportlaridan foydalanishda, turar joy, maishiy xizmatlar va soliqlarga oid imtiyozlar berish.

Fuqarolar to'g'risidagi ma'lumotlar Yagona ijtimoiy reyestr yoki ijtimoiy ta'minot kabi markazlashgan elektron tizim bazalarda saqlanadi. Bu esa ma'lumotlarning aniqligi, yangiligi va ishonchliligini ta'minlab, takroriy va noto'g'ri ma'lumotlar paydo bo'lishining oldini oladi. Avtomatlashtirilgan axborot tizimlari yordamida ehtiyojmand fuqarolar aniqlanadi va yordamlar manzilli tarzda taqsimlanadi.

Ijtimoiy ta'minot tizimida algoritmlar va dasturiy ta'minot muhim ahamiyatga ega. Maxsus algoritmlar orqali fuqarolarning daromadi, bandlik holati, sog'lig'i va ijtimoiy maqomi baholanadi. Ushbu raqamli baholash mexanizmi inson omiliga bog'liq xatolarni kamaytirib, adolatli qaror qabul qilish imkonini yaratadi. Natijada ijtimoiy yordam "kim tanish" tamoyili asosida emas, balki aniq ma'lumotlar asosida belgilanadi. Kompyuter tarmoqlari va internet texnologiyalari ijtimoiy ta'minot tizimining ochiqqligi va qulayligini oshiradi. Fuqarolar elektron portal va mobil ilovalar orqali ariza topshirish, hujjatlarni kuzatish va qaror natijalarini bilish imkoniga ega bo'ladi. Bu esa davlat organlari va fuqarolar o'rtasidagi muloqotni soddalashtiradi hamda vaqt va mablag' tejashiga olib keladi.

Axborot xavfsizligi ijtimoiy ta'minot tizimining muhim jihatlaridan biridir. Fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlari himoyasi kriptografiya, autentifikatsiya va zaxira nusxa olish mexanizmlari orqali ta'minlanadi. Bu tizimning barqarorligi va ishonchliligini oshirib, foydalanuvchilar ishonchini va shaffofligini mustahkamlaydi.

Mamlakatimizda ijtimoiy ta'minotni izchillik asosida amalga oshirishda moddiy omillar bilan bir qatorda, ma'naviy omillarga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi tarixiga nazar solsak, ijtimoiy ta'minot faqat xayriya mablag'lari hisobidan amalga oshirilganining guvohi bo'lamiz. O'zbek xalqining tarixi Markaziy Osiyo xalqlari tarixining bir bo'lagi bo'lib, u og'ir va murakkab yo'llarni bosib o'tgan. Barchamizga ayonki, 2020-yil aholini ijtimoiy himoya qilish borasida tub burilish yili bo'ldi. Avvalo, aholining muayyan qatlamlari o'rtasida kambag'allik mavjudligi birinchi marta tan olinib, uni qisqartirish bo'yicha keng



qamrovli ishlar boshlandi. Barcha tuman va shaharlarda, har bir mahallada ehtiyojmand oilalar, ayollar va yoshlar bilan manzilli ishlash bo'yicha mutlaqo yangi — "temir daftar" tizimi joriy etildi. Darhaqiqat, ehtiyojmand oilalar bilan manzilli ishlash, o'zini o'zi band qilgan aholi uchun soliq imtiyozlari berilishi, dehqon xo'jaligi egalari uchun imtiyozli kredit va subsidiyalar ajratilishi, ijtimoiy nafaqa oluvchilar sonining oshirilishi ijtimoiy sohada yangi yondashuvning muhim elementidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldegi PF 4947-son farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"ni "Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" ni shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-martdegi 122-son qarori hamda 2021-yil 28-apreldagi 250-son qarori ijtimoiy ta'minot tizimi yanada takomillashtirish va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish choralari belgilandi.

XULOSA

"Ijtimoiy reyestr" va "Ijtimoiy ta'minot" kabi tizimlar O'zbekistonda aholining ijtimoiy himoya tizimini raqamlashtirish, yordamni manzilli yetkazish hamda fuqarolarning hayot sifatini oshirishga qaratilgan muhim davlat siyosati tizimi hisoblanadi. Ushbu tizimlarning joriy etilishi natijasida minglab oilalar moddiy yordam oldi, ishsiz fuqarolar bandlikka ega bo'ldi, ayollar tadbirkorlik faoliyatini boshlash imkoniyatiga ega bo'ldi hamda davlat tomonidan ko'rsatilayotgan ijtimoiy yordamlarning samaradorligi oshdi. Ma'lumotlar bazasi texnologiyalaridan foydalanish, algoritmik optimallashtirish, axborot-kommunikatsiya tarmoqlari infratuzilmasini rivojlantirish va axborot xavfsizligini ta'minlash ushbu tizimlarning zamonaviy, ishonchli va samarali faoliyat yuritishini ta'minlamoqda. Natijada davlat boshqaruvi va ijtimoiy sohalarda tezkor, shaffof va adolatli xizmatlar ko'rsatish imkoniyatlari yanada kengaymoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. PF-4947-son Farmon "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". — Toshkent, 2017-yil 7-fevral.
2. Shishkin S.V. Ijtimoiy siyosat va ijtimoiy ta'minot tizimi. Moskva: Nauka.
3. Qosimova G., Saidov M. Ijtimoiy ish va ijtimoiy xizmat ko'rsatish texnologiyalari. — Toshkent, 2021.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasasi. "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror. Toshkent, 2021-yil.





5. Bekmurodov M., G'aniyev O. Ijtimoiy siyosat va ijtimoiy ta'minot asoslari.